




2021- yil yanvar-dekabr oylarida ANDIJON VILOYATIDA xizmatlar sohasining rivojlanishi






2021-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.




**2021- yil yanvar-dekabr****Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **14 970,5** mlrd. so'mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **121,3 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)





ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2021-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021-yil yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020-yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	14 970,5	121,3
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	649,8	111,2
Moliyaviy xizmatlar	3 364,9	150,3
Transport xizmatlari	3 093,8	113,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	3 023,8	112,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	239,7	108,5
Savdo xizmatlari	4 501,1	112,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	424,3	118,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	622,6	118,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	253,9	111,5
Ijara xizmatlari	332,3	118,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	337,9	123,2
Shaxsiy xizmatlar	678,4	118,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	103,4	98,6
Boshqa xizmatlar	368,4	132,7



2021-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ulush

Nisbatan past ulush



**2021-yil yanvar-dekabr****Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi **30,1 %** ni tashkil etdi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida eng past o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,7 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmda **31,6 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi xizmatlarining ulushi ham eng kichik bo'lgan – **0,8 %**.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlari (**150,3 %**), boshqa xizmatlari (**132,7 %**), ta'lim sohasida (**118,0 %**) qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida Moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (**122,0 %**).



2021-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



**2021- yil yanvar-dekabr****Dastlabki ma'lumotlar**

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **30,1 %** ni tashkil etdi, bu esa **4 501,1 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi **3 607,7 mlrd. so'mga** yoki umumiy hajmining **31,6 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

**2020- yil
yanvar-dekabr**

**Xizmatlar hajmi
3 607,7 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati
105,0 %**

**Ulushi
31,6 %**



**2021- yil
yanvar-dekabr**

**Xizmatlar hajmi
4 501,1 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati
112,6 %**

**Ulushi
30,1 %**

**2021- yil yanvar-dekabr****Dastlabki ma'lumotlar**

2021- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **83,7 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**

7,3 %**83,7 %****9,0 %**

**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**



**2021- yil yanvar-dekabr****Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobi bo'yicha olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **3 364,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi

2 209,5 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ularining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **22,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi **19,4** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **1 155,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **150,3** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ularning o'sish sur'ati **122,0** % ga yetgan.

**2021-yil yanvar-dekabr****Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlarda moliyaviy xizmatlarning ulushi **66,2 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning dekabr oyi yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **4,1 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)





2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

2020- y. yanvar-dekabr

2021- y. yanvar-dekabr

576,5
mlrd. so'm

113,0 %

5,1 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

**Jami hajmdagi
ulushi**

Hajmning o'sishi

73,3 mlrd. so'mga

649,8
mlrd. so'm

111,2 %

4,3 %




2021-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **94,5 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2021-y. yanvar-dekabr





2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**473,3
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**622,6
mlrd. so'm**

**2020- y.
yanvar-
dekabr**



**2021- y.
yanvar-
dekabr**

2021- yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **622,6** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,2 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,0 %** ni tashkil etdi.

96,7%

O'sish sur'atlari, % da

118,0 %

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlar hajmi **473,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish darajasi **96,7 %** da qayd etilgan.



2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**

195,4

239,7

**2020- yil
yanvar-dekabr**

**2021- yil
yanvar-dekabr**



**O'sish
sur'ati, % da**

100,0

108,5

2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **44,3** mlrd. so'mga ortdi.



2021-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021-y. yanvar-dekabr

92,1 %

7,9 %



7,6 %

2020-y. yanvar-dekabr

92,4 %



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar**



Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **92,1 %** bilan ustunlik qildi.



2021-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2020- yil
yanvar-dekabr**

**2021- yil
yanvar-dekabr**

200,2
mlrd. so'm

**Xizmatlar
hajmi**

253,9
mlrd. so'm

95,8 %

**O'sish
sur'ati**

111,5 %

1,8 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

1,7 %



2021- yil yanvar-dekabr


Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da

(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



2021- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Andijon shahriga tegishli – **33,5 %** (2020- yilda **33,2 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ulushlari Ulug'nor tumanida **2,5 %** (2020- yilda **2,6 %**) qayd etildi.



2021-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar (2021- yil yanvar-dekabr)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Andijon viloyati	14 970,5	121,3	105,6
Shaharlar:			
Andijon sh	5 021,6	122,5	108,6
Xonobod sh	491,6	117,1	102,7
Tumanlar:			
Oltinko'l	637,8	120,8	101,4
Andijon	861,1	121,7	102,7
Baliqchi	800,7	122,0	101,4
Bo'ston	390,7	115,8	101,4
Buloqbo'shi	560,1	121,4	101,1
Jalaquduq	643,4	121,5	101,8
Izboskan	725,0	120,5	102,2
Ulug'nor	371,0	116,0	100,1
Qo'rg'on-tepa	834,8	122,1	102,2
Asaka	927,2	122,3	103,2
Marhamat	581,1	120,6	102,5
Shahrixon	854,6	122,2	102,9
Paxtaobod	702,9	120,3	103,5
Xo'jaobod	567,0	119,1	102,4

**) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

**2021-yil yanvar-dekabr****Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi**Hajmning
o'sishi****4 648,1
ming so'm****1 033,9
ming
so'mga**

2021-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 648,1** ming so'mga yetdi.

2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **118,9 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 614,2** ming so'mni tashkil etgan.

118,9 %**O'sish sur'ati**



2021-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2022-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**2021- yil yanvar-dekabr****Dastlabki ma'lumotlar**

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **62,2 %**, sanoat **23,1 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **7,0 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **7,7 %** ga to'g'ri keladi.

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **62,3 %**, sanoat **22,7 %**, qurilish **8,4 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **6,6 %** ni tashkil etgan.




2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, 65,4 % da



65,4 %

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **65,4 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **78,7 %** ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.

Tel.: 74-228-30-83